

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISH DEPARTAMENT

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 599 sahifa.
2026-yil, fevral.*

Bosh muharrir:

Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nasimov Rashid

Muharrir:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner:

Egamberdiyev Elyor

Tahrir hay'ati:

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 1. Mo'minov Bahodir (hay'at raisi) | 12. Xamza Eshankulov (O'zbekiston) |
| 2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o'rinbosari) | 13. Iles Xujayarov (O'zbekiston) |
| 3. Marat Raxmatullayev (O'zbekiston) | 14. Mexriddin Raximov (O'zbekiston) |
| 4. Muxammadjon Musaev (O'zbekiston) | 15. Murodjon Sultanov (O'zbekiston) |
| 5. O'tkir Xamdamov (O'zbekiston) | 16. Bekmurodov Ulug'bek (O'zbekiston) |
| 6. Ali Xikmet (AQSh) | 17. Alisher Qobilov (O'zbekiston) |
| 7. Dmitriy Rodionov (Rossiya) | 18. Iroda Abdullaeva (O'zbekiston) |
| 8. Dilnoza Muhammadieva (O'zbekiston) | 19. Burova Ekaterina (Rossiya) |
| 9. Gayrat Ishanxodjaev (O'zbekiston) | 20. Xodiyeva Gulmira (O'zbekiston) |
| 10. Nodir Rahimov (O'zbekiston) | 21. Sultonboyeva Munira (O'zbekiston) |
| 11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya) | |

Jamoatchilik kengashi:

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Gul Tokdemir (Turkiya) | 8. Olga Dzyabenko (Ispaniya) |
| 2. Umid Axmedov (Daniya) | 9. Stefani Estlund (Lyuksemburg) |
| 3. Marko Porta (Italiya) | 10. Sanjar Iskandavor (O'zbekiston) |
| 4. Xristo Beloev (Bolgariya) | 11. Aydos Sarsembayev (Qirg'iziston) |
| 5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya) | 12. Svetomir Vasilev (Bolgariya) |
| 6. Boshtyan Brumen (Sloveniya) | 13. Pap Solt (Vengriya) |
| 7. Bibigul Koshoeva (Qirg'iziston) | |



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	7
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	13
Eshov Mansur Po'latovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	20
Babadjanov Atxam Axmadjanovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	26
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI. 32	
Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI	38
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI	43
Pardayev To'liqin Nasirovich	
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	47
Quramboev Jamshid Rashid o'g'li	
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL.....	50
Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich	
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODEL VA RISK- MONITORING TIZIMI	56
Tashmuxeimedov Dilmurod Mirabzalovich	
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS.....	62
M.N. Umarova	
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA.....	69
Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	76
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich	
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	81
Arziyeva Sevinch Shomurot qizi	
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....	85
Babadjanov Shuhrat Atxamovich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	92
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	97
Karimov Alibek Valiyevich	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVCHI OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI.....	102
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.....	108
Набиев Бехзод Шавкатович	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI.....	114
Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	120
Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI	124



Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ..... 134

Турсунов Бобир Ортикмирзаевич

KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 141

Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li

MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI 147

Umarova Nargiza Xoldarovna

YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI..... 154

Sadriddinova Nigora

RAQAMLI MOLIVAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O'RTASIDAGI IJTIMOYIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI.... 162

Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI 170

Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O'ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI 176

Makamov Z.X., Soatov S.S.

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI..... 182

Muxtorov Boburmizro Bahodir o'g'li

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI..... 188

Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda

PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 192

Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o'g'li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO'NALISHLARI..... 196

To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi

BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI..... 201

Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug'bek o'g'li

SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI..... 208

Axmedov Zafar Bozorboyevich

DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEKANIZMLAR..... 213

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI ..221

Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI 226

Azlarova Mushtariybegim Abror qizi

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINING ROLI..... 232

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna

MOLIVAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 238

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G'anijon qizi

AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI 244

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi

MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI 251

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi

BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI..... 258

Azlarova Aziza Axrorovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi

AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI..... 265



Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBRXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI	272
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR	278
Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI	285
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	292
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	298
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	305
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна MOLIYAVIY INKLIZIYADA KIBRXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA.....	313
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O'RNI	318
Irgashev Anvar Farxodovich RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI	322
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	325
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli O'ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	328
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS.....	331
Freshta Qayoumi O'ZBEKISTONDA REKREATIONS TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	333
Po'latova Mavluda Sanjar qizi O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	336
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI	340
Valijonov X.A. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MASALALARI	344
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISHNING MAKRO DARAJADAGI TAHLILI	347
Suyarov Shahzod Salim o'g'li INVESTITSIYON MUHITNI SAMARALI BOSHQARISHDA INNOVATSION OMIL TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	350
To'rayev Jasurali To'rayevich SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI: DH-ROI-EM MODEL ASOSIDA	353
Omonov Olim Murodullaevich	



РИСКИ ЛИКВИДНОСТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ.....	355
Садыков Азиз Миршарапович	
THE ROLE OF TECHNOLOGY IN RESTAURANTS AND ENHANCING OFFERINGS FOR TOURISTS.....	358
Freshta Qayoumi	
INVESTITSIYA FAOLLIQI MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK OMILI SIFATIDA	360
Islamov Anvar Ashirqulovi	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	363
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	363
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
CHANGES IN TEXTILE INDUSTRY OUTPUT AND THE FACTORS INFLUENCING IT	367
Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTI AUDITINING NAZARIYMETODOLOGIK ASOSLARI	371
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI AUDITINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI.....	373
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
KAM XARAJATLI TASHUVCHILAR MODELINING MOHIYATI	376
Suyunov Alisher	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MEHMONXONALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HORIIYIY TAJRIBANI QO'LLANILISHI.....	379
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ СПРОСА И ПРЕДЛОЖЕНИЯ.....	382
Абидова Дилфуза Игамбердиевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH.....	385
M. M. Abdurahmanova	
ERKIN IQTISODIY ZONA ISHTIROKCHILARIGA BERILGAN SOLIQ IMTIYOZLARI	389
Davlayev G'olib Ashurovich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI	392
Xaydarova Kamola Axinjanovna	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA FAOLIYAT YURITUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI ZAMONAVIY INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASHNING HUQUQIY VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	395
Davlayev G'olib Ashurovich	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR	398
Asadova Maftuna Sa'dullayevna	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	401
Xolikov S.X.	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	404
S.X. Xolikov	
DAROMADLAR VA XARAJATLARNI BOSHQARISH KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	408
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI AGROTEKNOLOGIYALARINI MOLIVALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	411
Jolibekov Vladimir Baxtiyarovich	
TOWARDS A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: REGIONAL	



DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL CHALLENGES	413
Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
TOWARD RESPONSIBLE HYDROCARBON DEVELOPMENT: SUSTAINABILITY AND ENVIRONMENTAL ACCOUNTABILITY	417
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING INSTITUTIONAL MECHANISMS	420
Islamov Anvar Ashirqulovich	
O'ZBEKISTON SANOAT TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI	423
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING ONLAYN XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	427
Jumaniyozova M. Y.	
HAVO TRANSPORTIDA YUK TASHISH BOZORIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI: GSA/ GSSA AGENTLIK HAMDA EKSPEDITORLIK MODELLARI TAHLILI	430
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
RAQAMLI PLATFORMALAR VA IJTIMOY MEDIA TARMOQLARINING TURIZM SOHASIDA ISTE'MOLCHI XATTIHARAKATLARIGA TA'SIR MECHANISMS	435
Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON XIZMATLARNING ISTIQBOLLARI VA TAHLILI	438
Otaboyev Nodirbek Oybek o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK AKTIVLAR VA INVESTITSİYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Mirzaev Komiljon Abdullajonovich	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH MASALALARI	444
Axmetova S. S.	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING VUJUDGA KELISH OMILLARI VA SABABLARINING NAZARIY ASOSLARI	448
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
BOJXONA IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARIVA XALQARO TAJRIBASI	455
Latipov Jahongir Shavkatovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TARKIBI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
Asadova Maftuna Sa'dullayevna	
MARKAZIY OSIYO MAMLUKATLARI IQTISODIY TIZIMLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING DINAMIKASI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	463
Karimov Odiljon Boqiyevich	
SOLIQ NAZORATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	466
Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING STRATEGIK TENDENSIYALARI	468
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI	471
Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH	476
Primkulova Zilola Abrorovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLAR XARAJATLARINING	



BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH.....	480
Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna	
MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING TASHKILII-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	483
Yoqubjon Toxirov	
FORSAYT TEXNOLOGIYASI ORQALI TA'LIM MUASSASASI RAHBAR XODIMLARINING MA'NAVIIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	487
Nuriyeva Umida Buribayevna	
PROJECT-BASED ORGANIZATIONS UCHUN KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN KADRLAR SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	491
Qarshiboyev Jasur Fazliddin o'g'li	
SUG'URTA SHARTNOMASINING HAYOTIY SIKLI BO'YICHA XARAJATLARNI GURUHLASH MASALALARI.....	494
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
TIJORAT BANKLARI RESURLARI TARKIBIDA AHOLI OMONATLARI ULUSHINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	498
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
“MUVAFFAQIYATLI HARAKATLAR” (SUCCESSFUL EFFORTS) USULI ASOSIDA GEOLOGIYAQIDIRUV XARAJATLARINI KAPITALLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	500
Rizayev Nurbek Qodirovich	
Izbasarov Bahodir Ergashevich	
BIZNESDA RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	504
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH IJTIMOIIY INSTITUTINING MOHIYATI, ROLI VA AHAMIYATI.....	507
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA MODELARDAN FOYDALANISH.....	510
Xusanova Malohat Mingnorovna	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODELI VA ILMIY YONDASHUHLARI.....	513
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVINI RAQAMLASHTIRISH: ERISHILGAN NATIJALAR, STATISTIK TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	517
Berdiyev Abbas	
THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT PRACTICES AND ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY.....	522
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali kizi	
FEATURES OF INVESTMENT BEHAVIOUR IN THE CONTEXT OF FINTECH DEVELOPMENT.....	527
Karimova Nurjakhon Olim kizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI.....	532
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTINING SAMARALI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA.....	535
Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASI MOLIIYAVIIY NATIJALAR AUDITIDA RAQAMLI VOSITALAR VA IQTISODIY-MATEMATIK MODELASHTIRISH.....	539
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	



МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	543
Караматдинова Айсауле Парахатовна	
MINTAQALARDA GENERATIV SUN'YI INTELLEKT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	546
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	550
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	
KORXONALARNING INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	554
Almanov Xurshid Ismoilovich	
SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	557
Choriyev Tolib A'zamovich	
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПЛАТФОРМ НА ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТОРОВ ФОНДОВОГО РЫНКА	563
Каримова Нуржахон Олим кизи	
HUDUDLARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI QO'LLABQUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	568
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	572
Isoqova Aziza Alisher qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	576
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	579
Isoqova Aziza Alisher qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	582
Otabek Oltiboyev	
EKSPORT FAOLIYATIDA VALYUTA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH: KONSIGNATSIYA, DEBITOR QARZDORLIK VA RAQAMLASHTIRISH	585
Israilov Avazbek Rustam o'g'li	
НОВЫЙ ЭТАП ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА КАПИТАЛА.....	589
Камола Назарова	
XALQARO UNIVERSITET MENEJMENTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUV.....	593
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TO'QIMACHILIK SANOATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY RISKLARNI BOSHQARISH.....	595
Nurullayeva Mexribon Muratovna	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARINING MILLIY VA XALQARO REYTING INDIKATORLARI MUVOFIQLIGI: BOSHQARUV TAHLILI.....	598
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
ФИНАНСОВАЯ ПРОЗРАЧНОСТЬ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК УСЛОВИЕ ДОСТУПА К БАНКОВСКОМУ КРЕДИТОВАНИЮ.....	603
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH: MAVJUD HOLAT, MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	606
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	



TOMORQA XO’JALIGI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI IQTISODIY PROGNOZLASH	611
Ulugbek Nurullaev	
AGROKLASTERLARNING YER RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	617
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
QISHLOQ XO’JALIGIDA RESURS SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN OPTIMAL FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	622
Shixiyev Raxim Muxammedovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG’INI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO’NALISHLARI	627
Farmanov Jonibek Ziyadullaevich	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА	631
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Йўлдошходжаев Сарвар Бахромхожаевич	
MINTAQAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI: YEYROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQI (YEOII) IQTISODIY BARQARORLIGI VA O’ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY MANFAATLARI MUTANOSIBLIGI	635
Arzikulov Muhammad Ali	
Toshpulatova Laylo	
INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDA MOLIYA-KREDIT DASTAKLARI VA VOSITALARINING O’RNI	639
I. Madaminov	
YER BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	643
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
RAQAMLI INFRATUZILMADA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA KONTENT TAQSIMLASH TIZIMLARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	647
Xujamatova Shaxlo Abdusalom qizi	
HUDUDLARNING INVESTITSIONINNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI KO’P O’LCHOVLI TAKSONOMIK BAHOLASH USLUBIYOTI	652
Xatamova Manzura Ochildiyevna	
SOLIQ NIZOLARINI HAL ETISHDA MUQOBIL NIZOLARNI BARTARAF ETISH USULLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	659
Solihova Xumora Xasan qizi	



SOLIQ NIZOLARINI HAL ETISHDA MUQOBIL NIZOLARNI BARTARAF ETISH USULLARINING IQTISODIY AHAMIYATI

Solihova Xumora Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Moliya va turizm” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Soliq munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarni mediatsiya, muzokaralar va boshqa suddan tashqari mexanizmlar orqali hal etishning afzalliklari tahlil qilingan. Muqobil nizolarni hal etish usullarining vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, davlat va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu mexanizmlarning iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va soliq tizimi barqarorligini ta'minlashdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: soliq nizolari, mediatsiya, muqobil nizolarni hal etish, iqtisodiy samaradorlik, soliq ma'murchiligi, investitsion muhit, sudgacha hal etish, muzokaralar, arbitraj, soliq to'lovchi.

Аннотация: В данной статье исследуется экономическое значение альтернативных методов урегулирования налоговых споров. Проанализированы преимущества разрешения налоговых конфликтов посредством медиации, переговоров и других внесудебных механизмов. Освещена роль альтернативных способов урегулирования споров в сокращении временных и финансовых затрат, укреплении сотрудничества между государственными органами и бизнесом, улучшении инвестиционного климата и повышении эффективности налогового администрирования. Результаты исследования показывают важность данных механизмов для рационального использования экономических ресурсов и обеспечения устойчивости налоговой системы.

Ключевые слова: налоговые споры, медиация, альтернативное разрешение споров, экономическая эффективность, налоговое администрирование, инвестиционный климат, досудебное урегулирование, переговоры, арбитраж, налогоплательщик.

Abstract: This article examines the economic significance of alternative dispute resolution methods in settling tax disputes. The study analyzes the advantages of resolving tax-related conflicts through mediation, negotiations, and other out-of-court mechanisms. Particular attention is given to the role of alternative dispute resolution in reducing time and financial costs, strengthening cooperation between tax authorities and taxpayers, improving the investment climate, and enhancing the efficiency of tax administration. The findings demonstrate that these mechanisms contribute to the rational use of economic resources and support the sustainability of the tax system.

Keywords: tax disputes, mediation, alternative dispute resolution, economic efficiency, tax administration, investment climate, pre-trial settlement, negotiations, arbitration, taxpayer.

Jahon iqtisodiyotida soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Soliq munosabatlari jarayonida soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'rtasida turli nizolarning yuzaga kelishi tabiiy holat bo'lib, bunday nizolarni tezkor, adolatli va kam xarajatlar asosida hal etish iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullaridan foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.



So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sud tizimiga tushadigan yuklamani kamaytirish, nizolarni qisqa muddatlarda hal etish hamda davlat va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida mediatsiya, muzokara, arbitraj va boshqa muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur usullar nizolarni hal etish xarajatlarini kamaytirish, vaqt resurslarini tejash va iqtisodiy faoliyat uzluksizligini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikka xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab soliq munosabatlari sharoitida nizolarni sudgacha yoki suddan tashqari tartibda hal etish imkoniyatlari tadbirkorlik subyektlari uchun qulay huquqiy muhit yaratishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish jarayonlarida soliq nizolarini hal etishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining qo'llanilishi nafaqat nizolarni hal etish muddatlarini qisqartiradi, balki davlat organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish hamda ma'muriy xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qiladi.

Shu sababli soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining iqtisodiy ahamiyatini o'rganish, ularning amaliy natijalarini baholash hamda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni, afzalliklari va soliq tizimi samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq munosabatlari davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi eng muhim iqtisodiy-huquqiy aloqalardan biri hisoblanadi. Soliq tizimining samaradorligi nafaqat soliq tushumlarining hajmi bilan, balki soliq munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarni tezkor va adolatli hal etish darajasi bilan ham belgilanadi. Soliq nizolari uzoq davom etadigan sud jarayonlariga aylanib ketganda, bu holat davlat organlari, biznes subyektlari va investorlar uchun qo'shimcha vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy tizimlarda soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalmoqda.

Muqobil nizolarni hal etish usullari deganda, odatda, sud muhokamasidan tashqari yoki sudgacha bo'lgan bosqichlarda nizolarni o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlar tushuniladi. Bunday mexanizmlar qatoriga mediatsiya, muzokaralar, ekspert xulosalari, arbitraj va ma'muriy kelishuvlar kiradi. Ushbu usullar nizolarni qarama-qarshilik ruhida emas, balki hamkorlik va kelishuv tamoyillari asosida hal etishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy munosabatlarning uzluksizligi saqlanib qoladi hamda biznes muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar kamayadi.

Soliq nizolarining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilganda, ularning yuzaga kelishi ko'pincha soliq qonunchiligi normalarining turlicha talqin qilinishi, hisobotlarni yuritishdagi xatolar, imtiyozlarning qo'llanishi bo'yicha kelishmovchiliklar yoki nazorat tadbirlari natijalariga nisbatan e'tirozlar bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Bunday vaziyatlarda nizoni darhol sud tartibida ko'rib chiqish ko'pincha uzoq muddat talab qiladi. Sud xarajatlari, advokatlik xizmatlari, ekspertiza va boshqa qo'shimcha sarf-xarajatlar iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Muqobil nizolarni bartaraf etish usullari esa ushbu xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda soliq nizolarini sudgacha hal etish mexanizmlari soliq ma'murchiligining ajralmas qismiga aylangan. Bunday tizimlar orqali nizolarning muhim qismi sudga yetib bormasdan hal etiladi. Natijada davlat budjeti mablag'lari tejalar, sud organlarining ish hajmi kamayadi va iqtisodiy subyektlarning faoliyati uzluksiz davom etadi. Ayniqsa, investitsion muhitni yaxshilashda soliq nizolarini tezkor hal etish mexanizmlarining mavjudligi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Muqobil nizolarni hal etish usullarining eng muhim iqtisodiy afzalliklaridan biri vaqt resurslarini tejash hisoblanadi. Iqtisodiyotda vaqt omili kapital bilan bir qatorda muhim resurs sifatida qaraladi. Agar tadbirkorlik subyekti uzoq muddatli sud jarayonlariga jalb qilinsa, uning moliyaviy resurslari muzlatib qo'yilishi, investitsion loyihalar kechikishi yoki operatsion faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muqobil mexanizmlar esa nizoni nisbatan qisqa muddatlarda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy faollikning saqlanishiga va biznes jarayonlarining uzluksiz davom etishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, muqobil nizolarni hal etish mexanizmlari davlat xarajatlarini optimallashtirishga ham yordam beradi. Sud tizimini moliyalashtirish, sud apparatini saqlash, ekspertiza xizmatlari va boshqa tashkiliy xarajatlar davlat budjetidan katta mablag' talab qiladi. Nizolarning ma'lum qismi muqobil usullar orqali hal etilganda esa ushbu xarajatlarning qisqarishi kuzatiladi. Bu holat davlat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi (1-jadval).

1-jadval. Soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining iqtisodiy samaradorligi¹

Ko'rsatkichlar	Sud tartibida hal etish	Muqobil usullar orqali hal etish	Farq (%)
Nizoni ko'rib chiqishning o'rtacha davomiyligi (kun)	180	45	-75,0
Bir nizoga to'g'ri keluvchi o'rtacha xarajat (mln so'm)	18,5	6,2	-66,5
Davlat organlari tomonidan sarflanadigan ma'muriy xarajatlar (mln so'm)	8,0	3,1	-61,3
Nizo yakunlangunga qadar mablag'larning muomaladan chiqib qolish muddati (kun)	150	35	-76,7
Tomonlar qoniqish darajasi (%)	68	89	+30,9
Soliq to'lovchining keyingi davrdagi ixtiyoriy soliq to'lash ehtimoli (%)	74	91	+23,0
Investorlar uchun huquqiy muhit jozibadorligi indeksi (100 ballik tizimda)	72	88	+22,2

Jadval ma'lumotlari soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Simulyatsion hisob-kitoblarga ko'ra, muqobil mexanizmlar nizolarni ko'rib chiqish muddatini 180 kundan 45 kungacha qisqartirib, vaqt xarajatlarini 75 foizga kamaytiradi. Shuningdek, bir nizoga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar 18,5 mln so'mdan 6,2 mln so'mga tushib, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Davlat organlarining ma'muriy xarajatlari ham sezilarli darajada qisqaradi. Tomonlar qoniqish darajasining 89 foizga yetishi hamda ixtiyoriy soliq to'lash ehtimolining oshishi soliq intizomining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investorlar uchun huquqiy muhit jozibadorligining ortishi mamlakatning investitsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining iqtisodiy samaradorligini baholashda ularning biznes muhiti uchun yaratadigan qulayliklarini ham alohida ta'kidlash lozim. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi konstruktiv muloqotning shakllanishi o'zaro ishonch darajasini oshiradi. O'z navbatida, ishonchning ortishi soliq intizomini mustahkamlaydi hamda ixtiyoriy ravishda soliqlarni to'lash ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa budjet daromadlarining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy raqobatning kuchayishi davlatlardan biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratishni talab qilmoqda. Jahon amaliyotida investitsion muhitning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida nizolarni hal etish tizimining samaradorligi baholanadi. Soliq nizolarini tezkor va shaffof hal etish imkoniyatlari investorlarning huquqiy himoyaga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada mamlakatning investitsion jozibadorligi ortadi va yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish imkoniyatlari kengayadi.

Muqobil nizolarni bartaraf etish mexanizmlarining yana bir muhim jihati ularning moslashuvchanligidadir. Sud qarorlari qat'iy protsessual normalar asosida qabul qilinadi, muqobil mexanizmlarda esa tomonlarning manfaatlar va iqtisodiy sharoitlari kengroq hisobga olinadi. Bu esa nizolarni yanada maqbul va amaliy yechimlar asosida hal etish imkonini yaratadi. Natijada tomonlar o'rtasidagi kelgusidagi hamkorlik munosabatlari ham saqlanib qoladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil nizolarni hal etish tizimlarining samaradorligi yanada ortib bormoqda. Elektron murojaatlar, masofaviy muzokaralar, onlayn mediatsiya platformalari va raqamli hujjat aylanishi jarayonlarni sezilarli darajada soddalashtirmoqda. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish bilan birga, hududiy cheklovlarni ham bartaraf etmoqda. Natijada soliq to'lovchilar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar yanada qulay va samarali shaklga ega bo'lmoqda.

Soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida muqobil nizolarni bartaraf etish usullarining institutsional asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mediatsiya institutlarini takomillashtirish, soliq organlari huzurida maslahat va kelishuv platformalarini kengaytirish, nizolarni elektron ko'rib chiqish tizimlarini rivojlantirish hamda mutaxassislarning malakasini oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar soliq nizolarini hal etish samaradorligini oshirish bilan birga iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, soliq nizolarini hal etishda muqobil nizolarni bartaraf etish usullaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat va biznes subyektlari xarajatlarini kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar iqtisodiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash, nizolarni tezkor hal etish va resurslardan

¹ Manba: muallifning simulyatsion ishlanmasi.



oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ularni rivojlantirish va amaliyotga keng joriy etish zamonaviy soliq tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. United Nations. Practical Manual on Transfer Pricing for Developing Countries. – New York: United Nations, 2021. – 720 p.
2. World Bank Group. The Administrative Review Process for Tax Disputes: Tax Objections and Appeals in Latin America and the Caribbean. – Washington, D.C.: World Bank, 2019. – 156 p.
3. Lang M., Pistone P., Schuch J., Staringer C. Dispute Resolution under Tax Treaties and Beyond. – Amsterdam: IBFD, 2023. – 412 p.
4. Gregg M. The OECD Dispute Resolution System in Tax Controversies // Laws. – 2024. – Vol. 13, No. 4. – Art. 45.
5. CIAT. Dispute Resolution for International Tax: Reflections on Arbitration, the Mutual Agreement Procedure, and Mediation. – Panama City: Centro Interamericano de Administraciones Tributarias, 2025. – 134 p.
6. Thuronyi V. Comparative Tax Law. – Alphen aan den Rijn: Kluwer Law International, 2016. – 456 p.
7. Owens J., Qureshi A. International Tax Dispute Resolution. – Alphen aan den Rijn: Kluwer Law International, 2020. – 368 p.
8. OECD. Tax Administration 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 240 p.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Bosh muharriri: Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari: Nasimov Rashid

Muharrir: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner: Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№1124 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

